

DEVELOPING LISTENING COMPREHENSION SKILLS THROUGH MODERN TECHNICAL TOOLS AND INTERACTIVE PLATFORMS

Shakhnoza Khikmatullayevna Akbarova

International Academy of Islamic Studies of Uzbekistan

Faculty of Classical Oriental Philology,

Associate Professor of the Department of Uzbek and Foreign Languages,

Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)

Abstract:

This article analyzes the role and importance of modern technical tools and interactive platforms in developing listening comprehension skills. The possibilities of audio and video players, subtitles and transcripts, voice recording tools, and LMS platforms in the listening process are highlighted. In addition, the effectiveness of interactive platforms such as BBC Learning English, TED-Ed, ESL Lab, LyricsTraining, FluentU, VoiceTube, Quizlet, Kahoot!, Quizizz, and Edpuzzle in the educational process is discussed. The article also examines the advantages of AI-based platforms such as Gliglish and ELSA Speak in improving pronunciation and listening comprehension skills. It is argued that the methodologically correct integration of these tools and platforms into English language teaching contributes to the development of students' independent learning, motivation, and communicative competence.

Keywords: Listening comprehension, interactive platforms, modern technical tools, English language teaching, LMS platforms, artificial intelligence, audio materials, video materials, communicative competence, independent learning, digital technologies, pronunciation development.

TINGLAB TUSHUNISHNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNIK VOSITALAR VA INTERAKTIV PLATFORMALAR

Shaxnoza Xikmatullayevna Akbarova

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Mumtoz sharq filologiyasi fakulteti,

O'zbek va xorijiy tillar kafedrasida dotsenti ,

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya:

Ushbu maqolada tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirishda zamonaviy texnik vositalar va interaktiv platformalarning o'rni hamda ahamiyati tahlil qilinadi. Audio va video pleerlar, subtitrlar va transkriptlar, ovoz yozish vositalari hamda LMS platformalarining tinglab tushunish jarayonidagi imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, BBC Learning English, TED-Ed, ESL Lab,

LyricsTraining, FluentU, VoiceTube, Quizlet, Kahoot!, Quizizz va Edpuzzle kabi interaktiv platformalarning ta'lim jarayonidagi samaradorligi ko'rib chiqilgan. Sun'iy intellektga asoslangan Gliglish va ELSA Speak platformalarining talaffuz va tinglab tushunishni rivojlantirishdagi afzalliklari ham tahlil etilgan. Maqolada mazkur vosita va platformalarni ingliz tilini o'qitish jarayoniga metodik jihatdan to'g'ri integratsiya qilish talabalarning mustaqil ishlashi, motivatsiyasi va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: tinglab tushunish, interaktiv platformalar, zamonaviy texnik vositalar, ingliz tilini o'qitish, LMS platformalari, sun'iy intellekt, audio materiallar, video materiallar, kommunikativ kompetensiya, mustaqil ta'lim, raqamli texnologiyalar, talaffuzni rivojlantirish.

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ АУДИРОВАНИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНИЧЕСКИХ СРЕДСТВ И ИНТЕРАКТИВНЫХ ПЛАТФОРМ

Аннотация:

В данной статье анализируется роль и значение современных технических средств и интерактивных платформ в развитии навыков аудирования. Освещаются возможности аудио- и видеоплееров, субтитров и транскриптов, средств записи голоса, а также LMS-платформ в процессе обучения аудированию. Кроме того, рассматривается эффективность таких интерактивных платформ, как BBC Learning English, TED-Ed, ESL Lab, LyricsTraining, FluentU, VoiceTube, Quizlet, Kahoot!, Quizizz и Edpuzzle в образовательном процессе. Также анализируются преимущества платформ на основе искусственного интеллекта — Gliglish и ELSA Speak — в развитии произношения и навыков аудирования. В статье обосновывается, что методически правильная интеграция данных средств и платформ в процесс обучения английскому языку способствует развитию самостоятельной работы студентов, их мотивации и коммуникативной компетенции.

Ключевые слова: аудирование, интерактивные платформы, современные технические средства, обучение английскому языку, LMS-платформы, искусственный интеллект, аудиоматериалы, видеоматериалы, коммуникативная компетенция, самостоятельное обучение, цифровые технологии, развитие произношения.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi tinglab tushunishni rivojlantirishda yangi imkoniyatlarni yuzaga chiqarmoqda. A. Kukulska-Hulme va L. Shield "Mobile Learning in Language Education" asarida ta'kidlaganidek, "mobil texnologiyalar va interaktiv platformalar til o'rganish jarayonini yanada moslashuvchan, shaxsiylashtirilgan va samarali qilish imkonini beradi" . M. Warschauer va D. Healey ham "raqamli texnologiyalar

til o'qitish metodikasini tubdan o'zgartirib, yangi pedagogik imkoniyatlarni yuzaga chiqarmoqda" , deb hisoblaydilar.

Tinglab tushunishni rivojlantirishda qo'llaniladigan texnik vositalar:

1. Audio va video pleerlar: materialni istalgan tezlikda tinglash, kerakli qismlarni takrorlash, pauza qilish imkonini beradi. J. Wilson bu vositalarning ahamiyatini quyidagicha izohlaydi: "audio va video pleerlarning imkoniyatlari talabalarga o'z sur'atida ishlash, qiyin bo'lgan qismlarni qayta-qayta tinglash imkonini beradi" .

2. Subtitrlar va transkriptlar: talabalarning matni eshitish bilan birga ko'rish orqali tushunishini osonlashtiradi. L. Vandergrift va C.C.M. Goh ta'kidlashicha, "subtitrlar va transkriptlar ayniqsa boshlang'ich va o'rta darajadagi talabalar uchun foydali bo'lib, ularning tinglab tushunish qobiliyatini tezroq rivojlantirishga yordam beradi" .

3. Ovoz yozish vositalari: talabalarning o'z nutqlarini yozib olish va tahlil qilish imkonini beradi. Bu vositalar ayniqsa talaffuzni yaxshilash va o'z-o'zini baholashda muhim ahamiyatga ega.

4. LMS (Learning Management System) platformalari: Moodle, Google Classroom, Edmodo kabilar tinglab tushunish materiallarini joylashtirish, topshiriqlar berish va ularni tekshirish imkonini beradi. J. Harmer bu platformalarning afzalliklarini "materiallarni tizimlashtirish, talabalar faoliyatini kuzatish va tezkor fikr-mulohaza berish imkoniyatlari" , deb belgilaydi.

Tinglab tushunishni rivojlantirishga mo'ljallangan interaktiv platformalar:

- BBC Learning English – turli darajalar uchun mo'ljallangan audio va video materiallar, interaktiv mashqlar, podkastlar (6 Minute English, News Review, The English We Speak) va ularga ilova qilingan topshiriqlarni o'z ichiga oladi. Platformadagi materiallar qisqa va mavzulari dolzarb bo'lib, talabalar uchun qulay.

- TED-Ed – qisqa animatsion videolar va ularga ilova qilingan ko'p tanlovli testlar, ochiq savollar va muhokama mavzularini taqdim etadi. Videolar turli mavzularda bo'lib, talabalarning nafaqat tinglab tushunish, balki bilim doirasini kengaytirishga ham xizmat qiladi.

- ESL Lab (Randall's ESL Cyber Listening Lab) – turli darajalar (easy, medium, difficult) uchun mo'ljallangan audio materiallar va ularga ilova qilingan pre-listening, while-listening va post-listening topshiriqlarini o'z ichiga oladi. Platforma talabalarning mustaqil ishlashi uchun juda qulay.

- LyricsTraining – qo'shiqlar orqali ingliz tilini o'rganish platformasi. Talabalar qo'shiqni tinglab, matndagi bo'sh joylarni to'ldiradilar. Platforma bir necha darajadagi qiyinchilikni taklif etadi va qo'shiqni sekinroq tinglash imkonini beradi.

- FluentU – real videolar (treylarlar, yangiliklar, qo'shiqlar, motivatsion videolar) asosida tuzilgan platforma. Har bir videoga interaktiv subtitrlar, so'zlar ro'yxati va grammatik izohlar ilova qilingan. Talabalar videoni tomosha qilishdan oldin, davomida va keyin turli xil topshiriqlarni bajaradilar.

- VoiceTube – YouTube videolari asosida ishlaydigan platforma. Videolarga ikki tilda subtitrlar qo'shilgan va talabalar har bir so'zning ma'nosini ko'rishi mumkin. Platforma tinglash va so'z boyligini oshirishni birlashtiradi.

- Quizlet – platformasida o‘qituvchilar tinglab tushunish materiallari asosida audio qo‘shilgan kartochkalar va testlar yaratishi mumkin. Talabalar bu testlarni mustaqil bajarib, o‘z bilimlarini tekshiradilar.

- Kahoot! va Quizizz – interaktiv testlar yaratish platformalari. O‘qituvchi tinglab tushunish materiallari asosida test tayyorlaydi va talabalar real vaqt rejimida yoki mustaqil tarzda bu testlarni bajaradilar.

- Edpuzzle – videolar asosida interaktiv darslar yaratish platformasi. O‘qituvchi videoni kesishi, unga ovozli izohlar, savollar va testlar qo‘shishi mumkin. Talabalar videoni tomosha qilish davomida savollarga javob beradilar va o‘qituvchi ularning javoblarini ko‘rib boradi.

Sun‘iy intellektga asoslangan platformalar:

- Gliglish – sun‘iy intellekt asosida ishlaydigan til o‘rganish platformasi bo‘lib, talabalar AI bilan real muloqot qilish orqali tinglab tushunish va gapirish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Platforma talaffuzni tahlil qiladi va xatolarni tuzatish bo‘yicha tavsiyalar beradi.

- ELSA Speak – talaffuzni rivojlantirishga mo‘ljallangan platforma. Talabalar so‘z va gaplarni talaffuz qiladilar, AI ularning talaffuzini tahlil qiladi va xatolarni ko‘rsatadi.

Texnik vositalar va interaktiv platformalardan foydalanishning afzalliklari. A. Kukulska-Hulme va L. Shield bu afzalliklarni quyidagicha umumlashtiradilar:

- materiallarning xilma-xilligi va dolzarbligi;
- talabalarning mustaqil ishlashi uchun qulay imkoniyatlar;
- individual yondashuv (talaba o‘z sur‘atida ishlashi, kerakli materiallarni takrorlashi);
- interaktiv topshiriqlar orqali faollikni oshirish;
- natijalarni avtomatik tekshirish va tahlil qilish;
- o‘qituvchining vaqtini tejash va monitoring qilish imkoniyati.

Biz oliy ta‘limda ingliz tilini o‘qitishda ushbu texnik vositalar va platformalardan foydalanish tinglab tushunishni rivojlantirish jarayonini samarali, qiziqarli va zamonaviy talabalar darajasida tashkil etish imkonini beradi, deb hisoblaymiz. Muhimi, ularni dars jarayoniga metodik jihatdan to‘g‘ri integratsiya qilish va talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olishdir. Shuningdek, sun‘iy intellektga asoslangan platformalar talabalarning mustaqil ishlash imkoniyatlarini kengaytirib, ularning o‘z-o‘zini rivojlantirishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kukulska-Hulme, A., & Shield, L. (2008). An overview of mobile assisted language learning: From content delivery to supported collaboration and interaction. *ReCALL*, 20(3), 271–289.
2. Warschauer, M., & Healey, D. (1998). Computers and language learning: An overview. *Language Teaching*, 31(2), 57–71.
3. Wilson, J. J. (2008). *How to Teach Listening*. Harlow: Pearson Education Limited.
4. Vandergrift, L., & Goh, C. C. M. (2012). *Teaching and Learning Second Language Listening: Metacognition in Action*. New York: Routledge.
5. Harmer, J. (2007). *The Practice of English Language Teaching* (4th ed.). Harlow: Pearson Longman.

6. Richards, J. C. (2008). *Teaching Listening and Speaking: From Theory to Practice*. Cambridge: Cambridge University Press.
7. Rost, M. (2011). *Teaching and Researching Listening* (2nd ed.). London: Pearson Education.
8. Nation, I. S. P., & Newton, J. (2009). *Teaching ESL/EFL Listening and Speaking*. New York: Routledge.